

SHAYBONIY SULTONLARNING ILMGA BO'LGAN E'TIBORI

Kimsanova Ruxshona*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti**Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar**bo'yicha) yo'nalishi 3-kurs talabasi**RushanaXayrullayevna@gmail.com**Tel: +998 93 855 10 05*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishi XVI asrda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Shayboniylar sulolasi vakillarining ilm-fan, madaniyat va maorif rivojiga qo'shgan hissasi hamda ularning shaxsiy ilmiy-adabiy salohiyatini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II kabi hukmdorlarning yoshlik yillarida olgan ta'lim tizimi, diniy va dunyoviy bilimlarni egallash darajasi hamda ularning davlat mafkurasi bilan bog'liqligi o'rganiladi. Saroy manbalarining o'ziga xos xususiyatlari tanqidiy yondashuv asosida ko'rib chiqilib, sulolaviy an'analarning mintaq ma'naviy hayotidagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, ilm-fan homiyligi, vaqf tizimi, Movarounnahr, Buxoro xonligi, Mutribi Samarqandiy, "Mehmonnomayi Buxoro".

Abstract: This research paper is dedicated to the historiographical analysis of the contributions made by the representatives of the Shaybanid dynasty, who ruled Transoxiana in the 16th century, to the development of science, culture, and education, as well as their personal scholarly and literary potential. The article examines the educational background of rulers such as Muhammad Shaybanikhon, Ubaydullakhon, and Abdullakhon II during their youth, their acquisition of religious and secular knowledge, and its integration into state ideology. By applying a critical approach to the specific nature of court-sponsored primary sources, the study highlights the role of dynastic traditions in the spiritual and intellectual life of the region.

Keywords: Shaybanids, patronage of science, waqf system, Mawarannahr, Bukhara Khanate, Mutribi Samarqandi, "Mekhman-name-yi Bukhara".

Аннотация: Данное исследование посвящено историографическому анализу вклада представителей династии Шейбанидов, правивших в Мавераннахре в XVI веке, в развитие науки, культуры и просвещения, а также изучению их личного научного и литературного потенциала. В статье рассматриваются система образования правителей, таких как Мухаммад Шейбани-хан, Убайдулла-хан и Абдулла-хан II, в годы их юности, уровень усвоения ими религиозных и светских знаний, а также взаимосвязь этого процесса с государственной идеологией. На основе критического подхода к

специфике придворных источников освещается роль династических традиций в духовной жизни региона.

Ключевые слова: Шейбаниды, покровительство науке, вакуфная система, Мавераннахр, Бухарское ханство, Мутриби Самарканди, «Михман-наме-йи

KIRISH

Ilm-fanga homiylik qilgan shayboniy hukmdorlar Shayboniy hukmdorlarning ilm-fanga homiylik qilishi tarixiy kontekstda o'rganilganda, bu hodisaning nafaqat shaxsiy motivatsiya, balki keng siyosiy va ijtimoiy manfaatlar bilan ham bog'liqligi aniq ko'rinadi[1:45]. O'rta asrlar islom dunyosida hukmdorning ilm-ma'rifat homiysi sifatidagi obro'-e'tibori uning siyosiy legitimligini mustahkamlashning muhim vositalaridan biri hisoblangan[8;112]. Bu an'ana Abbosiylar davridan boshlab shakllanib, keyinchalik Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar kabi sulolalar tomonidan davom ettirilgan[1;48]. Buxoro kabi yirik ilm markazi va uning ulkan intellektual an'analari fonida hukmronlik qilish Shayboniy hukmdorlarni ushbu ta'lim va ma'rifat infrastrukturasini nafaqat saqlab, balki rivojlantirish majburiyatini ham zimmasiga yuklagan[3;89]. Bu majburiyat bir vaqtning o'zida ham siyosiy zaruriyat, ham madaniy mas'uliyat tarzida anglangan[8;115].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Ilm-fanga homiylikning iqtisodiy jihatida ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Madrasalar, masjidlar va kutubxonalarning faoliyatini ta'minlash uchun moddiy resurslar zarur edi[2;76]. Vaqf tizimi bu muammoning islom madaniyatida ishlab chiqilgan o'ziga xos yechimi sifatida asrlar davomida sinovdan o'tgan[8;120]. Shayboniixonning butun mamlakat bo'ylab vaqf mulklarini taftishdan o'tkazishi va ularni tartibga solishga kirishishi ushbu iqtisodiy asosni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining aniq ko'rinishi edi[2;78]. Bu islohotlar natijasida madrasalardagi ta'lim tizimi yanada barqaror moddiy bazaga ega bo'ldi, mudarrislar va talabalarning ijtimoiy himoyasi kuchaydi[5;102]. O'z navbatida bu holat ilmiy faoliyatning intensivligini oshirib, yangi olimlar avlodining yetishib chiqishiga zamin yaratdi[1;52]. Shunday qilib, vaqf islohotini faqat diniy yoki xayriya harakati sifatida emas, balki davlatning ta'lim sohasidagi tizimli siyosati sifatida baholash ancha to'g'riroq yondashuv bo'ladi[2;81].

Shoirlar va adabiyot vakillariga homiylikning o'ziga xos xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish ham zarur. XVI asr adabiy hayotida saroy bilan ijodkorlar o'rtasidagi munosabat o'zaro manfaat tamoyiliga asoslanib, homiylarga maqtov qasidalar yozish evaziga shoirlarga moddiy taunot va ijtimoiy maqom taqdim etilgan[6;14]. Biroq bu holat Ubaydullaxon kabi hukmdorlarning o'zlari ham faol ijodkor bo'lganligini inkor etmaydi[6;18]. Homiy va ijodkor o'rtasidagi an'anaviy munosabatni yangi bosqichga olib chiqqan bunday hukmdorlar uchun ilm-fan va adabiyot faqat tashqi ko'rinish

vositasi emas, balki shaxsiy ruhiy ehtiyoj va intellektual qiziqishning ifodasi bo'lgan[3;92]. Mutribi Samarqandiy kabi zamondosh adabiyotshunoslarning ushbu davrni o'zbek adabiyotining jonlanish davri sifatida tavsiflashi ham Shayboniy saroylarida yaratilgan ijodiy muhitning samarali bo'lganligini tasdiqlaydigan mustaqil dalil sifatida qabul qilinishi mumkin[6;22].

Hukmdorlar yoshlikdan ilm olib o'rganganligi sababli ilmga mehr qo'ygan va kelajakda hukmdor sifatida ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shishgan [1;60]. Bunga boshqa sabablarni ham keltirishimiz mumkin: shayboniylardan avval bir asr hukm surgan Temuriylar sulolasining Ikkinchi Renessans asoschilari bo'lganliklari va bu orqali davlat qanchalik rivojlanganligini bilgan Shayboniy sultonlar ham ilm-fanni davlat hayotidagi muhim sohaga aylantirishga qaror qiladilar [8;134]. Ilm-fanga homiylik qilish turli yo'llar bilan amalga oshirilgan [1;63]. Avvalo, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi insonlarga e'tiborning ortishi, bunga misol qilib shoir va olimlarning asarlariga baho berib, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni aytishimiz mumkin[5;115]. Bundan tashqari, turli xil ta'lim muassasalarini barpo qilish orqali ham homiylik qilingan[3;95].

Hukmdorlarning ilm ahli hisoblangan shoirlar bilan munosabati ham bu davrda alohida ahamiyatga ega. XVI asr adabiy hayotida shoirlarning hukmdor bilan munosabati uch xil ko'rinishda bo'lgan[6;35]. Bu haqida manbalarda quyidagicha keladi. XVI asrda Movarounnahr adabiyotini o'rganish bo'yicha eng muhim asarlar muallifi Mutribi Samarqandiy shoir ahlining hukmdorga bo'lgan munosabatining uch turini ajratib ko'rsatadi: birinchisi – saroy shoiri; ikkinchisi – mamlakatdagi mavjud kuchlardan qochib, yolg'izlik sukunatida ijod qiladigan shoir; uchinchisi esa birinchi toifadagi shoirlarni kutayotgan barcha xavf-xatarlardan qochib, yaxshi moddiy ta'minot topish uchun saroydan saroyga sayohat qiladigan sayohatchi shoir [6, b. 38]. Saroy shoirining asosiy vazifalaridan biri unga homiylik qilgan shaxsni maqtash edi [4;120]. Shu bilan birgalikda saroy shoirining ishi sharaflari hisoblangan va saroy tomonidan haq to'langan, lekin ko'pincha shoirlar, she'r yozishdan tashqari, boshqa hech qanday mashg'ulot bilan shug'ullanishmagan [6;41]. Saroy shoirlaridan farqli ravishda, sayohatchi shoirlar boshqa hunarmandchilikni o'zlashtirganlar [6, b. 45]. Shuning uchun ham ularga o'z ishlari uchun boshqa yo'l bilan haq to'lay oladigan homiy kerak edi [4, b. 122].

J. Meisamining so'zlariga ko'ra, "o'rta asr fors she'riyati Eron sulolalari homiyligida paydo bo'lgan va rivojlangan va bu holat yigirmanchi asrning boshlariga qadar davom etgan"[4;15]. Ko'pchilik olimlar tomonidan bu holat salbiy omil sifatida ko'riladi va ular saroydan tashqari she'riyatga murojaat qilishgan, ularda ichki shaxsiy tajribadan kelib chiqqan va hukmron toifa siquvidan xoli bo'lgan asarlarni topishgan [4;18]. Shunga qaramay, G'arb va Sharq o'rta asr adabiyotini o'rganish shuni

ko'rsatdiki, saroy homiyligi ajoyib asarlarning paydo bo'lishi uchun zarur shart bo'lgan [4;25].

XVI asr boshlarida hukmron elitaning sof she'riyatga qiziqishi muayyan darajada transformatsiyaga uchradi. Bunga turli xil sabablarni keltirishimiz mumkin, bu jarayon ayniqsa, Eron va Movarounnahrda yaqqol namoyon bo'ldi [1;70]. Safaviylar ham, Shayboniylar va keyinchalik Ashtarxoniylar ham yangi davlatlarining asosi sifatida diniy mafkurani tanladilar [8;142]. Bunday sharoitda hukmdorlarga she'riyat nafaqat estetik zavq, balki ko'proq targ'ibot va davlat g'oyasini mustahkamlash vositasi sifatida kerak edi [1;72].

Shayboniylar xonadoni vakillarining she'riyatga munosabati va o'sha davr adabiy hayotidagi ishtiroki darajasini ko'rib chiqqan A.A.Semenov, ko'chmanchi o'zbeklar davlati asoschisi Abulxayrxonni tavsiflab, shunday yozadi: "Abulxayrxonning qay darajada savodli bo'lganini aytish qiyin, lekin u shubhasiz adabiy qiziqishlarga begona emas edi" [7;54]. U Kamoliddin Husayn Xorazmiy bilan muloqot qilgani Abulxayrxonning ilmga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi [7;56]. Uning nabirasi Muhammad Shayboniyxon esa Boyshayx uyg'ur kabi yetuk ustozlar qo'lida ta'lim oldi [5;45]. A.A.Semenov ta'kidlaganidek, xon hayotidagi ko'plab qiyinchiliklarga qaramay, chuqur bilim olishga muvaffaq bo'ldi [7;59]. Faxri Haraviy "Rauzat as-salatin" asarida Shayboniyxonning ona tilini a'lo darajada bilgani va turkiy tilda yuksak she'rlar bitganini qayd etadi [1;75].

Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrda hokimiyatni egallagach, uning oldida nafaqat harbiy-siyosiy, balki o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar ham turardi [8;148]. Asrlar davomida shakllangan va muayyan darajada izdan chiqqan davlat boshqaruv tizimini qayta yo'lga qo'yish, ayniqsa, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy hayotida muhim o'rin tutgan vaqf mulklari masalasini tartibga solish shular jumlasidan edi [2;85]. Fazlulloh ibn Ruzbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asari bizga Shayboniyxonning bu sohada amalga oshirgan muhim bir islohoti haqida qimmatli ma'lumot beradi [2;88]. Vaqf tizimini markazlashtirish va uning daromadlarini bevosita mudarrislar hamda talabalarga yo'naltirish orqali Shayboniy hukmdorlar ta'lim tizimining uzluksizligini davlat miqyosida kafolatlatadi [2;92]. Bu esa sulolaning ma'rifatparvarlik siyosati nafaqat shaxsiy qiziqish, balki institutsional xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi [1;80].

XULOSA

XVI asr Movarounnahr madaniy muhitida Shayboniy hukmdorlarning ilm-fanga homiylik faoliyatini tarixiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganish quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

Birinchidan, Shayboniy sultonlarning ilm-fanga homiyligi shunchaki an'anaviy xarakterga ega bo'lmay, davlat tizimining mafkuraviy va siyosiy legitimligini mustahkamlovchi asosiy strategik vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Ulamolar va

ziyolilar qatlamini moddiy hamda ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali yangi siyosiy hokimiyatning jamiyatdagi barqarorligi ta'minlangan.

Ikkinchisidan, Mutribi Samarqandiy ma'lumotlari tahlili ko'rsatganidek, XVI asrda ijodkorlar va saroy munosabatlari tizimli iqtisodiy asosga ega bo'lgan. Garchi diniy mafkuraning kuchayishi tufayli she'riyat ko'proq davlat g'oyalari targ'ibotiga xizmat qilgan bo'lsa-da, hukmdorlarning shaxsiy intellektual salohiyati (masalan, Shayboniyxon og'ir sharoitlarda ham ta'lim olgani va Ubaydullaxon ijodi) adabiy muhitning inqirozga uchrashiga yo'l qo'ymagan, aksincha, chig'atoy-o'zbek adabiy tilining mavqeyini yuksaltirgan.

Uchinchidan, Fazlulloh ibn Ruzbexonning "Mehmonnomayi Buxoro" asarida aks etgan vaqf islohotlari Shayboniylarning ta'lim tizimini institutsional darajada boshqarganidan dalolat beradi. Vaqf mulklarining qayta tartibga solinishi madrasalar, mudarrislar va talabalarning moddiy ta'minotini yaxshilab, Movarounnahrda Temuriylardan keyin ilm-fan taraqqiyotining uzviyligini saqlab qolishda muhim iqtisodiy poydevor bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov B.A. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 432 b.
2. Fazlulloh ibn Ruzbexon Isfahoniy. Mehmonnomayi Buxoro (Tarixi safari Xorazm). R.Jalilova tarjimasini. – Toshkent: Fan, 1967. – 336 b.
3. Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma ("Sharafnomayi shohiy"). B.Axmedov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 1999. – 416 b.
4. Meisami J.S. Medieval Persian Court Poetry. – Princeton: Princeton University Press, 1987. – 326 b.
5. Muhammad Solih. Shayboniynoma. E.Shodiyev nashri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – 336 b.
6. Mutribi Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. I.Bekjonov tarjimasini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 324 b.
7. Semenov A.A. K voprosu o proisxojdennii i sostave uzbekov Sheybani-xana // Trudi AN Tadjikskoy SSR. – Dushanbe, 1954. – 110 c.
8. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 368 b.